

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

“Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo`nalishi
3–kurs P1 guruh talabasi Ruziyeva Aziza Nosirovnaning

Pedagogika fanlarini o`qitish metodikasi fanidan

**“Pedagogik fanlarni o`qitishda amaliy metodlarning
ahamiyati.”**

mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

o`qituvchi D.Usmonova

Navoiy – 2014

MUNDARIJA

KIRISH

1. O'qitish metodlarining tasniflashga oid ilmiy qarashlar
2. O'qitishning amaliy metodlari
 - 2.1. Nazariy bilimlardan foydalaniladigan mashqlar
 - 2.2. Ta'limiy o'yinlar – o'qitishning amaliy metodlaridan biri sifatida
 - 2.3. Darsliklar bilan ishlash
3. Pedagogik fanlarni o'qitishda amaliy metodlardan foydalanish

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Ta'limning mazmuniga qo'yilayotgan yangi talablar yosh avlodga, xususan, fanlarning asoslari bo'yicha yuksak ilmiy-nazariy bilimlar berishdan iborat bo'lib, bu ish nazariy bilish metodlariga, shu jumladan, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, mantiqiy operatsiyalarni bajarish usullari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'qitish metodlarining yagona ta'rifi yo'q. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat usullarining tartibga solinishidir. Umuman, o'qitish metodlarining majmui - atrofda voqelikni bilishning yo'li, deya xulosa chiqarish mumkin.

O'quvchilar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi insoniyatning tajribasini o'zgartirishning o'zidir. O'qitish nazariyasi metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi.

O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Maktabdagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo'lib, ular o'zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi, o'qitish jarayonini ko'rish imkoniyatini yaratadi. Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi, umumiy va muayyan nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi. O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchiga dastur materialini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Kurs ishi maqsadi: Pedagogika fanlarni o'qitishda amaliy metodlarning ahamiyatini nazariy tahlil qilib, ta'lim jarayonida ularni qo'llashga oid ayrim tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Pedagogika fanlarni o'qitishda amaliy metodlarning ahamiyatini va ulardan foydalanishni tadqiq qilish jarayoni.


Tadqiqot predmeti: Pedagogika fanlarni o'qitishda amaliy metodlarning ahamiyatini va uni amalga oshirish shakl va yo'llari.

Tadqiqot vazifalari:

- Mavzuga oid ilmiy - pedagogik, metodik adabiyotlar, muammoning amaliyotdagi holatini o'rganish asosida tadqiq qilish dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash;
- Pedagogika fanlarni o'qitishda amaliy metodlarning ahamiyatini va ulardan foydalanishning maqsad, vazifalari, mazmuni va shakllarini o'rganish;
- Pedagogika fanlarni o'qitishda amaliy metodlarning ahamiyatini va ulardan foydalanish samarali shakl va uslublarini izlab topish.

1. O'qitish metodlarining tasniflashga oid ilmiy qarashlar

M.A.Danilov va B.P.Esipovlar asosiy e'tiborni «ta'lim metodini to'g'ri tanlash»ga qaratishadi. Gap shundaki, sobiq Sho'ro umumta'lim maktablarining o'quv jarayonida metodlarning cheksiz ko'pligi, xatto ularni bir necha tasnif bilan ham qamrab olish mumkin emasligi, shu boisdan ham o'quv-tarbiyaviy ishlar muvaffaqiyatining bosh omili va eng muhimi to'g'ri, asoslangan metodni tanlash hisoblangan, Ana shu «g'oya» mohiyat jihatidan noto'g'ri bo'lishiga qaramay, o'n yillar davomida didaktika «rivoji»da muhim o'rin tutib keldi. Nihoyat, har ikki tasnif bilimlar manbai bo'yicha ham, didaktik maqsadlar bo'yicha aniqlangan ta'lim metodlari tizimi maktab amaliyotining asosiy muammosini hal eta olmasligiga tanqidiy yondashildi, ularni qo'llash ta'lim sifatining yuqori darajasini ta'minlaganligi anglab yetildi va bu boradagi izlanishlar davom ettirildi. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'quvchilarning bilish faoliyati xarakteriga mos ta'lim tasnifi yaratildi.



Ushbu metodlar, mualliflarning ta'kidlashlaricha, bir-biridan o'quvchilarning ta'lim mazmuni turlarini o'zlashtirishda amalga oshadigan bilish faoliyatlari xarakteri va o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini tashkil etuvchi o'qituvchi holati ... bo'yicha farqlanadi.

Izohli-tasvirli ta'lim metodlari (boshqa nomlanishi axborotli-repsepsiya)ning mohiyati: odatda nazariy bilimlar tayyor holda uzatiladi, o'quvchilar esa ularni qabul qiladilar (repsepsiya). Bu yo'lda turli ta'lim vositalari (shu jumladan, ko'rgazmali vositalar)dan foydalaniladi. O'qituvchi faoliyati bunda nafaqat axborotlarni uzatish, balki ularning o'quvchilar tomonidan qabul qilinishini ham tashkil etishdan iborat bo'ladi.

Izohli-tasvirli metoddan ta'lim jarayorida foydalanishda quyidagi holatlar yuzaga keladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
<ul style="list-style-type: none"> - Tushuntirish; - Harakatni ko'rsatish; - Dalillardan xabardor qilish; - o'quvchining materialni anglab yetishini rag'batlantirishga yo'naltiruvchi usullar; - turli didaktik materiallardan foydalanish 	<ul style="list-style-type: none"> - axborotlarni qabul qilish; - o'quv materialini tushunib olishga intilish va dastlabki ma'lumotlarni yodda saqlash; - o'quv materialini tushunish

Reproduktiv ta'lim metodlari yuqorida keltirilgan metodlardan quyidagi unsurlarning mavjudligi bilan farqlanadi: o'qituvchining bilimlarni tushuntirishi, ularni o'quvchilarning yodida saqlanishini ta'minlashi va qayta ishlab chiqishi (reproduksiya). O'zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo'lishiga ularni ko'lmarta takrorlash evaziga erishiladi. Mazkur metod ta'limning barcha bosqichlari, asosan, boshlang'ich sinflarda o'qish va yozish, arifmetik harakatlarni amalga oshirish ko'nikmalarini o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Reproduktiv metoddan foydalanishda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar tashkil etiladi:


O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
<ul style="list-style-type: none"> - avval o'zlashtirilgan mavzu, paragraf yoki bob bo'yicha so'rov; - o'quvchilar uchun turli mashqlarni saralash va taklif qilish; - masalalarni yechishdagi o'quv harakatlarining namunasi va algoritmini namoyish qilish; - o'quv harakatlari ko'nikmasi va malakasini shakllantirish 	<ul style="list-style-type: none"> - turli kontekstda bilimlarni qayta ishlash; - namuna bo'yicha topshiriqlarni bajarish; - mashqlarni bajarish; - namunaviy masalalarni yechish usullarini egallash; - namunaviy masalalarni yechish algortmini egallash

Evristik ta'lim metodini qo'llashda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish talab etiladi. O'qituvchi bilimlarning bir qismini o'quvchilarga ma'lum qiladi, qolganini esa o'quvchilar bilish topshiriqlarini yechish jarayonida savollarga javoblar topish asosida o'zlashtiradi, o'zlari bilimlarni mustaqil egallashadi. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilishi, ularni bajarishda o'quvchilarning ketma-ketlikka rioya etishlari muhim metodik jihat sanaladi. SHu bois mazkur metod qisman izlanuvchan metod ham deb ataladi.

Evristik metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
<ul style="list-style-type: none"> - o'quvchilarni masalaning mohiyatini o'rganishga jalb etish; - echim rejasini aniqlashda mulohaza yuritish namunasini ko'rsatish; - masalani bosqichlarga ajratish; -evristik suhbat 	<ul style="list-style-type: none"> - evristik suhbatda qatnashish; - masalani yechish rejasini olg'a surish; - izlanuvchan harakat usullarini egallash; - masalalar yechish yo'llarini izlab topish

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:



Muammoli o'qitish metodining tuzilmasi

Muammoli ta'lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat», «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. CHizmadan anglanadiki, muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib, o'zida sub'ektning aniq yoki qisman tushunib yetilgan muammoni ifodalaydi, uni bartaraf etish yangi bilimlar, usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa, shubhasiz, muammoli vaziyat yechimini u qabul qilmaydi, ya'ni, muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muamo mohiyatini tushunib yetilishi, ifodalanishi, mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi, biroq, barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat

muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa, u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni, demak, muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal yetadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa, uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni, uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi.

Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
<ul style="list-style-type: none"> - o'quv materialiga oid tafovutlarni taklif etilishi; - muammoli vaziyatlarni tuzish; - muammoning mavjudligini aniqlab berish; - muammoli topshiriqlarni loyihalash 	<ul style="list-style-type: none"> - o'quv materiali mohiyatining anglab yetilishi; - muammoli vaziyat yuzasidan fikrlash; - mavjud bilimlar va tajribani qayta tiklash; - muammoli masalaga o'tkazish; - topshiriqni bajarish


Tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi, o'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi, tajribasini egallaydilar.

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
<ul style="list-style-type: none"> - o'quvchilarga o'quv muammosini taklif etish; - o'quvchilar bilan hamkorlikda tadqiqot masalasini o'rnatish; - o'quvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish 	<ul style="list-style-type: none"> - o'quv muammolari mohiyatini anglab olish; - tadqiqot muammosini o'qituvchi va o'quvchilar bilan birgalikda o'rnatishda faollik ko'rsatish; - ularni yechish usullarini topish; - tadqiqiy masalalarni yechish usullarini o'zlashtirish

Evristik va tadqiqotchilik metodlari o'quvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra bir muncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. SHunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. SHuningdek, buyuk didakt I.YA.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot¹ ham amalga oshirilgan.

Didaktikada ta'lim metodlarining binar (ikki)li va ko'pbinarli omil asosida tizimlashtirishga bo'lgan urinishlarni ham kuzatish mumkin. CHunonchi, M.I.Maxmutov tomonidan ta'lim metodlari va o'qish metodlari ajratiladi:



¹ Меретукова В.Р. Инновационные идеи в дидактических трудах И.Я.Лернера. Дисс. ... канд.пед.наук (13.00.01). – Москва, 2003.

Shunday qilib, juft (binar)li metodlar vujudga keldi:

1. Axborotli-malumotli va bajaruvchi.
2. Tushuntiruvchi va reproduktiv (nomahsul).
3. Yo'riqli-amaliy va produktiv (mahsuldor)-amaliy.
4. Tushuntiruvchi-undovchi va qisman izlanuvchi.
5. Undovchi va izlanuvchi.

Juft (binar)li ta'lim metodlarining tasnifi

Shuningdek, V.F.Palamarchuk va V.I.Palamarchuklar ta'lim metodlarining uch o'lchovli modelini taklif qilishgan. Unda bilimlar manbai, o'quvchilarning bilish faolligi va mustaqillik darajasi hamda o'quv-bilishning mantiqiy yo'li yaxlit tarzda chog'ishtiriladi.

S.G.Shopavalenko ta'lim metodlari tasnifini to'rt belgi asosida asoslovchi quyidagi tetroeddik yondashuvni taklif etadi:

- 1) mantiqiy-mazmunli;
- 2) manbali;
- 3) mazmunli;
- 4) tashkiliy boshqaruvchi.

I.P.Podlasiy birmuncha keng tarqalgan ta'lim metodlari tasnifiga yaqinlashar ekan, quyidagi fikrni ta'kidlaydi: «Boshqa bir qator ta'lim metodlari tasnifi ham mavjud. Masalan, nemis didakti L.Klinberg ta'lim jarayonida metodlarni hamkorlik shakllari bilan uyg'unlashtirishga alohida urg'u beradi»¹ va quyidagi metodlarni ko'rsatadi:

Monologik metodlar	Hamkorlik shakllari	Diologik metodlar
Ma'ruza	Individual	Suhbatlar
Hikoya	Guruhli	Intervyu
Namoyish	Frontal	-
-	Jamoaviy	-

Ta'lim metodlari turli shakllar hamda xilma-xil ta'lim vositalari yordamida joriy etiladi.

Ta'lim shakllari ta'lim jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy ko'rinishidir. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida quyidagi ta'lim shakllaridan samarali

¹ Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. Кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 1999.

foydalanib kelinmoqda: ma'ruza, seminar, amaliy mushg'ulot, uchrashuv, taqdimot, sayohat, o'quv konferensiyasi va boshqalar.

Ta'lim jarayonida ta'limning samaradorligini ta'minlovchi muhim elementlardan biri sifatida ta'lim vositalari e'tirof etiladi. Ta'lim vositalari sirasiga quyidagilar kiradi: texnik hamda axborot qurilmalari (dioproyektor, kinedoskop, uskunalar, radio, televideniye, kompyuter, audio hamda video magnitafonlar), laboratoriya jihozlari (kolbalar, probirkalar, kimyoviy reaktivlar, mikroskop), xarita, maketalar, diagrammalar, plakatlari, rasmlar, chizmalar va hokazolardan foydalaniladi.

N.S.Sayidahmedov tomonidan asoslangan ta'lim metodlari tasnifi asosida didaktik jarayon nazariyasi yotadi². Ma'lumki, didaktik jarayon har qanday pedagogik texnologiyaning asosi sifatida o'zida quyidagi uchta komponentni mujassamlashtiradi:

- 1) motivatsion bosqich;
- 2) o'quv faoliyati;
- 3) boshqaruv.

Demak, didaktik jarayon tuzilmasiga mos holda ta'lim metodlarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- I. O'qish va mehnatga rag'batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari.
- II. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- III. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari.

O'z navbatida har bir guruh ilmiy asosda kichik guruhlarga ajratiladi:

I. O'qish va mehnatga rag'batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari		
I kichik guruh	II kichik guruh	III kichik guruh
O'qishga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar	O'qish va mehnatda burch hamda javobgarlikni rag'batlantiruvchi metodlar	Mehnatga va muayyan kasbga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar
<ul style="list-style-type: none"> - biluv o'yinlari; - o'quv bahsi; - hissiy-axloqiy kechinmali vaziyatlar yaratish; - appersepsiyali (idrokning tajribaga bog'liqligi) vaziyatlarni yaratish; - biluv yangiliklari vaziyatlarini yaratish 	<ul style="list-style-type: none"> - o'qish va mehnatning muhimligiga ishonirish; - talablarni ifodalash; - talablarni bajarish uchun mashq; - o'qishdagi rag'bat; - o'qishdagi kamchilik uchun tanbeh 	<ul style="list-style-type: none"> - g'oliblarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish; - o'quvchilarning ishlab chiqarish vositalarini mustaqil boshqarishga intilishlarini rag'batlantirish; - ish joyidagi xulqini rag'batlantirish

² Сайидахмедов Н.С. Методы обучения и коллектив механизированному труду в хлопководстве. – Тошкент, Ўқитувчи, 1991. – с. 112.

II. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari		
I kichik guruh	II kichik guruh	III kichik guruh
O'quv-bilish faoliyatining mo'ljal asoslarini vujudga keltirish metodlari	O'quv-bilish faoliyatini bajarish metodlari	Mehnatda va mehnatda nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari
<p>Og'zaki:</p> <ul style="list-style-type: none"> - hikoya; - suhbat; - tushuntirish; - ma'ruza; - yo'riqnoma 	<p>Amaliy:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mashq; - o'quv-ishlab chiqarish tajribasi; - o'quv-unumli mehnat; - kitob bilan ishlash; - yozma ish 	<p>Og'zaki:</p> <ul style="list-style-type: none"> - individual so'rov; - yalpi so'rov; - dasturli og'zaki so'rov
<p>Ko'rsatmali:</p> <ul style="list-style-type: none"> - illyustratsiya; - namoyish 	<p>Izlanuvchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - qisman-izlanuvchi - tadqiqotchilik; - algoritmlilik; - tashhisli 	<p>YOzma:</p> <ul style="list-style-type: none"> - nazorat-yozma ish; - yozma sinov (test); - yozma imtihon; - dasturli yozma sinov (test); - laborotoriya-amaliy; - nazorat laborotoriya ishi; - mashinali nazorat; - unumli mehnatni son va sifat jihatdan baholash
III. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari		
<p>Bilish faoliyatini kuzatish metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - bevosita; - bilvosita yo'riqnoma yordamida; - o'z-o'zini nazorat <p style="text-align: right;">Nazorat metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o'qituvchi topshiradi; - dasturli qo'llanmadan foydalaniladi; - ta'limning texnik vositalari yordamida <p>O'quv faoliyatini tuzatish (korreksiya) metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tezkor; - yakuniy natija bo'yicha; - foiz ko'rsatkichi bo'yicha 		

Shunday qilib, taqdim etilayotgan ta'lim metodlari tizimi nazariy-amaliy jihatdan asoslangan va mazkur tizim yaxlit o'quv-tarbiya jarayonini qamrab oladi. Ushbu tizim bir qarashda akademik Yu.K.Babanskiy tomonidan asoslangan ta'lim metodlari tizimiga o'xshash. Biroq, Yu.K.Babanskiy tasnifi¹ga ko'ra ta'lim jarayoniga nisbatan kibernetik yondashuv maqsadga muvofiq, unga ko'ra har

¹ Педагогика фПод ред. Ю.К.Бабанского. – Москва, Просвехение, 1989.

qanday murakkab faoliyat, shu jumladan, ta'limiy faoliyat ham quyidagi uchta tarkibiy qismdan iboratdir:

- 1) tashkiliy;
- 2) rag'batlantiruvchi;
- 3) nazorat.

Ana shu asosida ta'lim metodlari quyidagicha guruhlanadi:


1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari.
2. O'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivlash metodlari.
3. Nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

Didaktik jarayon nazariyasi asosida ko'rilgan o'qish metodlarining tasnifi kichik guruhlar tarkibi, soni va unga kiritilgan metodlar nomenklaturasi hamda funksiyalari bilan kibernetik yondashuvli tizimdan tubdan farqlanadi va o'quv-tarbiya jarayonining metodik jihatdan birmuncha yuqori darajasini ta'minlaydi¹.

¹ Сайидахмедов Н.С. Система методов обучения учащихся механизированному труду в хлопководстве. Автореф. дисс. ... канд.пед.наук. – Москва, 1983, - с. 18.

2.O'QITISHNING AMALIY METODLARI

Amaliy ishlar metodlari o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.



Amaliy ishlar metodi – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar – maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnoma yoki maxsus ko'rsatmani o'quvchilar e'tiboriga havola etadi.

Qayd etilganidek, ushbu metodlar o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo'ladi.

Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi.

Yozma mashqlar – ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.

Grafikaviy ishlar ham yozma ishlar bilan o'xshash jihatlarga ega bo'lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (jumladan, geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta'lim)da keng ko'lamda foydalaniladi.

Mashqlarning bajarilish samarasi quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo'ladi:

- mashqlarni bajarishga nisbatan ongli yondashish;
- bajarish qoidasini bilish;
- vaqt bo'yicha takrorlanishning to'g'ri taqsimlanishi.

Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat:

- o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi;

- o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;

- zarur ko'nikma va malakalar shakllanganicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

Ayrim holatlarda o'quvchilar ovoz chiqarib o'quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo'ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko'nikma va malakalarni egallashga imkon beradi.

Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metod o'quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o'quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o'lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod o'quvchilarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. U o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko'nikmalarini shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati quyidagi besh bosqichda tashkil etiladi:

1. O'qituvchining tushuntirishi, faoliyat mohiyatini nazariy jihatdan anglash bosqichi.

2. Ko'rsatma, yo'l– yo'riq berish bosqichi.

3. Sinov bosqichi (bu bosqichda ikki-uch nafar o'quvchi amaliy harakatlarni bajaradi, qolgan o'quvchilar esa ularning faoliyatini kuzatadi).

4. Faoliyat (harakat)ni bajarish (har bir o'quvchi topshiriqni mustaqil ravishda bajaradi, ayni o'rinda topshiriqni bajarishga qiylangan o'quvchilarga alohida e'tibor qaratilib, ularga yordam ko'rsatiladi).

5. Nazorat bosqichi (bu bosqichda o'quvchilarning ishlari qabul qilinadi va baholanadi; ishning sifati, materialning maqsadga muvofiq tanlanganligi, vaqt nutqai nazardan tezkorlik, topshiriqni bajarish tizimining to'g'riligi va samaradorligi kabi holatlarga alohida e'tibor beriladi).

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar negizida amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi.

Hozirgi vaqtda o'qituvchilar qo'lida barcha o'quv fanlari bo'yicha didaktik o'yinlarning ishlanmalari mavjud, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlarda turli didaktik o'yinlarning ro'yxati yetarli darajada ko'rsatilgan.

Ta'limning globallashuvi ta'limiy va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo'nalishi jihatidan xilma-xil bo'lgan kompyuter o'yinlarining maktab amaliyotiga jadal kirib kelishini ta'minlamoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarga ijtimoiy-foydali mehnat hamda o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi. O'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo'riqishlarini kamaytiradi. Didaktik o'yinlardan foydalanilganda o'quvchilarning manfaatdor bo'lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan taqdiridagina ularni taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunchaki tashkil etilgan o'yin ijobiy natija bermaydi.

1. Ta'limiy topshiriqlar. Maktablardagi ta'limning hamma bosqichlarida o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. Lekin kichik yoshligidan boshlab ularning ijodiy fikrlashini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich sinflarda, xususan, ta'limning birinchi yili bolalarda o'qish qobiliyatlari shakllana boshlaydi.

O'quvchining ijodiy fikrlashi yangilik kashf etishida, ko'rilyotgan narsani yaratishning boshqacha usulini topishda, o'quv materialidan o'zgacha bog'lanishlarni ochib berishi va xokazolarda aks etadi. O'quvchilarning namunaga tayanmay qandaydir yangi narsani yaratish qobiliyati ijodkorlikni talab qiladigan faoliyatda rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ta'limiy topshiriqlar muhim rol o'ynaydi. Bunday topshiriqlar fikrlash faodiyatining maqsadi sifatida xizmat qiladi va uning xarakterini belgilaydi. Topshiriqlarning har xil turlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilar fikrlashining rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

O'quv faoliyatida reproduktiv topshiriqlarning ko'p qo'llanishi bolada ilgari o'zlashtirgan bilimlarini va ish usullarini qayta tiklashga intilishni, namunaga qarab ishlash odatini vujudga keltiradi va bu odat fikrlash jarayonining reproduktiv asosiga aylanadi. Lekin ijodiy fikrlash ishning andazasiz usullarini amalga

oshirishni, yangi maqsadlar qo'ya olishni, nazorat qila bilish va baholashni, rejalashtirishni, tahlil, taqqoslash va umumlashtirishning o'ziga xos usullarini, baholash mezonlarini shakllantirishni talab qiladi.

O'quvchilarda mazkur fikrlash jarayonlarini tarkib toptirish uchun darsda produktiv topshiriqlarni qo'llash, ularning bevosita ijodiy fikrlashi maqsadlar qo'yishga, rejalashtirishga, umumlashtirishga, shuningdek, nazorat qilishga va baholash kabi jarayonlarni rivojlantirishga qaratilishi kerak. Maqsadlar qilish jarayoni matn, rasm mazmuniga savollar tuzish, javob qaytarayotgan o'quvchiga qo'shimcha savol berish, masalaning shartlariga turli savollar qo'yish va hokazolarda amalga oshadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ishni rejalashtirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ular bilan o'zlarining kelgusidagi darslarda har qanday topshiriqlarni bajarishdagi xarakterlarini qanday tasavvur etishlarini doimiy ravishda muhokama qilib borish zarur. Shuningdek, darslarda hikoyaning rejasini tuzish, bayon yozish, masalalar yechish kabi topshiriqlardan keng foydalanish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish zarurligi o'qituvchining oldiga o'quv jarayonida o'quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan ham keng foydalanish vazifasini qo'yadi.

Ana shu jihatdan matematika darslarida, xususan, masalalar yechishda katta imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Fikrlash faoliyatining nazorat baholash mexanizmini shakllantirish har bir darsda o'quvchilarni faqat faoliyatning natijasini emas, balki ana shu faoliyat jarayonida tegishli baholashni ham amalga oshirishga undaydigan topshiriqlardan foydalanishni talab qiladi.

Dars strukturasi produktiv topshiriqlarni kiritish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda yangi maqsadlar qo'yish, rejalashtirish, andazasiz tahlil qilish, taqqoslash, nazorat qilish va baqolash kabi fikrlash jarayonlarini shakllantirishning asosiy shartlaridan biridirki, bu jarayonlar ijodiy fikrlashning rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

2.1.NAZARIY BILIMLARDAN FOYDALANILADIGAN MASHQLAR

Maktab amaliyotida mashqlar o'tkazish uchun o'quvchilarning nazariy bilimlariga murojaat qilishning ba'zi yo'llari belgilangan. Bu ishning eng keng tarqalgan, lekin eng kam samarali usuli dars rejasida ko'zda tutilgan mashqlarni bajarishda tayaniladigan ma'lum tushunchalar va qoidalarni og'zaki qayta tiklashdir. Mashqlarni bajarishdan oldin nazariy materialni takrorlashning samaraliroq usuli mazkur materialni qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlarni qo'yishdir. Bunday topshirmalarga tanlanma diktant o'tkazishda ma'lum so'zlar yozishni, nutqning ma'lum bo'laklarini qisqa vaqt ichida tahlil qilishni, nutqning ahamiyatli qismlarini ajratishni, didaktik tarqatma material bilan ishlashda ma'lum orfomalarni qayd qilishni, masalalar yechishda asos bo'ladigan matematik ifodalar bilan ishlash va hokazolarni kiritish mumkin.

Mashqlar o'tkazishda nazariy materialga murojaat qilishning navbatdagi usuli o'quvchining keyingi amaliy ishni bajarishdan oldin uning yo'llarini asoslashidir. Amaliy ishlarni bajarish vaqtida nazariy asoslash pedagogik jihatdan o'zini oqlagan. Bu usulni ikki variantda bajarish mumkin. Bular navbatdagi ishni keng tushuntirish va sharhlashdan iboratdir. O'quvchilar bilan ularning tayyorgarligidagi ayrim kamchiliklarini to'ldirish bo'iicha ishlashda navbatdagi ishlarni keng tushuntirish o'zini ancha oqlagan. Bunda avval o'quvchidan keng mushohada yuritishni talab qilish lozim va talabni bajarish esa hisoblash usulini chuqurroq anglashni ta'minlaydi.

Mushohada jarayoni asta-sekin kengaya boradi va harakatlar ma'lum tartibda ketma-ket amalga oshadi. Hisoblash usulini asoslovchi qoidaning yo'naltiruvchi roli yo'qoladi va u faqat qiyinchilik tug'ilganida eslanadi.

MASHQ – O'QUVCHILARDA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH FAOLIYATINING ASOSIY TURI

O'quvchilar malakalarining saviyasi ana shu ishning qanday tashkil etilishiga bog'liq. Mashqlarni tasniflashning bir necha tizimlari mavjud bo'lib, uning hamma turlarini malakalar hosil bo'lishi jarayonidagi o'rniga qarab uch guruhga: tayyorgarlik, o'quv va o'rganish mashqlariga bo'lish mumkin.

Tayyorgarlik mashqlarining vazifasi dasturdagi yangi materialni ongli ravishda o'zlashtirish uchun zarur bilimlar va amaliy ish usullarini esga tushirishdan iboratdir. Masalan, III sinfda fe'llarni o'rganish tajribasi bo'yicha oldin fe'llarni eshitib idrok etish, fe'lning zamon shakllarini aniqlash mashqlari o'tkaziladi. Bolalar so'zlar orasidagi fe'llarni ajrata oladigan bo'lganlaridan keyin ana shu so'z turkumini ongli ravishda qo'llash mashq qilinadi.

Boshqa bir misol. Matematika darsligining mualliflari I. Oxunjonov va N. U. Bikbaevalarning fikricha, 10 ichidagi amallarni mustahkamlashda va

ikkinchi o'nlikdagi sonlarni nomerlashni o'rganishda tarkibli masalalarni qo'llashdan oldin quyidagi tayyorgarlik mashqlarini muntazam o'tkazish kerak:

1. Oddiy masalaning shartiga savol qo'yish. Chunonchi, bir qutichada 6 ta, ikkinchi qutichada undan 2 ta kam qalam (opasida 10 ta va ukasida 8 ta marka) bor. Masalaning ana shu shartidan nimani bilish mumkin?

2. Masalaning berilgan shartidagi yetishmaydigan sonni to'ldirish. Chunonchi, akasida 4 ta daftar bor, aka va singilning daftarlari qo'shilsa, nechta bo'ladi? (Maydonda turgan mashinalarning 3 tasi ketsa, nechta mashina qoladi?)

3. Berilgan savolga javob uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash. Chunonchi, ikkita yashikda qancha olma borligini (qizchada necha tiyin qolganini) aniqlash uchun nimani bilish kerak? O'quv mashqlari yangi material yoritilishi bilanoq boshlanadi va ana shu materialni o'zlashtirishda yordam beradi. Ularning farqli xususiyati o'quvchilarga o'qituvchining doimiy yordam berishidan iboratdir. Bu yordam ko'pincha bajariladigan ishning usullari va natijalarini jamoa bo'lib muhokama qilishda, sharhlashda o'zining ifodasini topadi. Birinchi o'quv mashqida bolaga baho qo'yish maqul emas, chunki undan hali o'rganilmagan narsani so'rash pedagogik jihatdan noto'g'ridir. O'quv mashqlarini o'tkazishda algoritmik ko'rsatmalar, ya'ni aqliy va amaliy harakatlarning didaktik jihatdan o'zini oqlagan turlari belgilangan o'ziga xos xotiranomalar g'oyat foydalidir. Algoritmik ko'rsatmalarning keng doiradagi bir xil masalalarni yechish uchun qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'lib, ular ishda to'g'ri natijalarga erishish imkonini beradi.

O'qish darsida hikoyaning rejasini tuzish uchun quyidagicha xotiranoma juda foydalidir: 1. Hikoyani o'qi. 2. Uni qismlarga ajrat. 3. Har bir qismdagi asosiy masalalarni top. 4. Har bir qismga sarlavhalar qo'y. 5. Qismlarning sarlavhalaridan reja tuz. O'quv topshiriqlarining har xil turlaridan foydalanish o'quvchilarni ishga ijodiy yondashishga va nazariy bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi. Bunga erishish uchun o'quvchilarning bilimlarini ularning dastlabki tushuncha, tasavvur va ko'nikmalarini shakllantirgan materiallardan boshqacha materiallar asosida mustahkamlash va takomillashtirish kerak. Shuningdek, bu materiallar ko'p variantli topshiriqlardan tashkil topib, ularning har biri o'ziga xos bilishga doir va mantiqiy topshiriq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'rganish mashqlarining ana shunday yo'lga qo'yilishi o'quvchilar ongida yangi bog'lanishlar hosil bo'lishiga va shunga ko'ra materialning yaxshiroq o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Amaliy metodlar o'qitishning og'zaki va ko'rsatmali metodlari bilan uzviy birlikda qo'llaniladi. Chunki mashqlarni bajarish, tajribalarni o'tkazish va mehnat operatsiyalarini amalga oshirishdan oldin pedagog instruktiv tushuntirishlar o'tkazishi kerak. Og'zaki tushuntirish va rasmlarni ko'rsatish,

odatda, mashqlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi va uning natijasini aniqlash va tahlil qilish bilan tugallanadi.

4. Laboratoriya ishi tadqiqotchilik metodlari qatoriga kiradi va bunday metodlar yordamida o'quvchilar o'zlari uchun yangilik kashf etadilar. Boshlang'ich sinflarda laboratoriya ishlari, asosan, tabiatshunoslik va mehnat darslarida o'tkaziladi. Mehnat darslarida qog'oz, gazlama, loy va boshqa ashyolarning xossalari o'rganiladi. Oquv-tajriba uchastkasida turli o'simliklarning rivojlanishi kuzatiladi. Maktab laboratoriyasida amalga oshiriladigan ishlar bolalarda mehnat madaniyatini tarbiyalaydi, asboblarni ehtiyotlab ishlatish, ish o'rni batartib tutish odatini vujudga keltiradi.

5. O'yin, hozircha, hatto boshlang'ich maktabda ham o'qitishning metodi sifatida tegishli o'rin olgan emas. O'yinlar o'quvchilarning bo'sh vaqti bekor o'tmasligi va ularni jismonan chiniqtirish uchun o'tkaziladi.

2.2. Ta'limiy o'yinlar – o'qitishning amaliy metodlaridan biri sifatida

Ta'limiy o'yinlar darsda yoki darsdan tashqari o'tkazilishidan qat'i nazar, beixtiyor eslab qolish jarayonlarini ancha faollashtirishda, bilish faoliyatiga qiziqishini oshirishda, mustaqil mehnatga tayyorlashda katta ahamiyatga molikdir.

O'yinlarni psixologik-pedagogik tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish bosqichlari o'qituvchining o'yinni tashkil qilish va o'tkazishga nazariy-metodik tayyorgarligi:

- kichik maktab yoshidagi o'quvchidarning yoshi, o'ziga xos psixologik va tipologik xususiyatlarini o'rganish, ana shu xususiyatlarni hisobga olish hamda ular o'yinining maqsadi, vazifasi va mazmuniga muvofiq ravishda tuzatishni rejalashtirish;
- o'quvchilarning hayotiy tajribasini, qiziqishlarini, mayllari va qobiliyatlarini o'rganish hamda o'yinda ulardan foydalanib, har bir o'quvchida to'la qoniqish hosil qilishni rejalashtirish;
- texnik vositalardan foydalanib, namunaviy o'yinlarni ko'rsatish va tushuntirish;
- o'quvchilarni o'yinning mazmuni, syujeti, maqsadi va vazifalari, bosqichlari, borishi va qoidalari bilan tanishtirish;
- o'quvchilarni o'yin jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishga shaylash;
- o'yinga rahbarlikning xarakterini, o'yinda o'qituvchining o'zi ham hakam yoki kuzatuvchi sifatida qatnashishini yoki rahbarlikni peshqadam o'quvchiga berishini belgilash;
- o'yin jarayonida o'qituvchining o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi;
- o'tkazilgan o'yinni muhokama qilish: qo'yilgan vazifalar yuzasidan o'yinning natijalarini, ishtirokchilarning harakatlarini baholash va ularni rag'batlantirish;
- mazkur o'yinning o'quvchilarni vatanparvarlik va baynalmilalchilik ruhida tarbiyalashdagi samaradorligini pedagogik tahlil qilishdan iboratdir.

O'yinlarni tashkil qilishda quyidagi pedagogik omillarni hisobga olish zarur:

- o'quvchilarning o'yinning mohiyati, mazmuni, bosqichlari va natijasini to'la tushunishini;
- ularning navbatdagi o'yin faoliyatiga shaxsan qiziqish bilan ijobiy munosabatda bo'lishini;
- o'yinda zarur bilim, ko'nikma va malakalarini safarbar etishini;
- o'yingacha, o'yin jarayonida va undan keyin o'qituvchining barcha talablarini bajarishlarini.

Muammoni hal qilishning optimal psixologik-pedagogik shartlari quyidagilardan iboratdir:

- mazmunan dolzarb o'zbek xalq o'yinlari majmuasini tanlash;
- o'quvchilarni o'yin faoliyatiga emotsional jihatdan shaylash;
- o'qituvchining kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'zbek xalq o'yinlariga qiziqтира olishi;
- o'zbek xalq o'yinlariga rahbarlik qilish mazmuni, shakllari va metodlarining birligi;
- o'yin jarayonining hayotiyiligi, uning haqqoniyiligi;
- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'yin faoliyatida qatnashuvining ixtiyoriyligi;
- o'yinlarning mazmunini asta-sekin murakkablashtirib borish.

O'zbek xalq o'yinlarini tanlashga qo'yiladigan talablar:

- o'yinlar mazmunining hayotiyiligi va haqqoniyiligi;
- mazmuni bo'yicha mosligi;
- syujetning soddaligi, qiziqarliligi va hissiyotlilikligi;
- o'yinda faol fikrlashni, ijodkorlikni, sezgirlikni, tashabbuskorlik va faollikni, hissiy ta'sirchanlikni, o'tkir zehn va kuzatuvchanlikni, diqqat-e'tiborlilikni talab qilish;
- o'yinning o'quvchilar yoshiga, psixologiyasi va ularning pedagogik tayyorgarligiga mosligi.

O'qituvchi sinflar bo'yicha o'yinlarni "Milliy harakatli o'yinlar" (T. Usmonxo'jaev va b. Milliy harakatli o'yinlar. Toshkent, "O'qituvchi", 2000) kitobidan yoki mahalliy bolalar o'yinlaridan foydalanishi mumkin. O'yinlarni o'tkazishning tarbiyaviy maqsadi va vazifalari uchta (boshlang'ich, asosiy, yakunlovchi) bosqichda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich bosqich – o'quvchilar bilan ularning yoshiga mos, tushunarli, ijodiy yo'sindagi tayyorgarlik ishlarini olib borishdir. Ana shu ishlar orqali o'yinlar o'quvchilarda o'z xalqining tarixiga, an'alariga: xalq ijodiga, shu jumladan, o'yinlariga, o'zbek xalqining qahramonona, inqilobiy o'tmishiga qiziqish hamda mehnatga hurmat va muhabbat uyg'otishi lozim. Shuningdek, ularda respublikamizning mehnatdagi yutuqlari bilan faxrlanish hissini; xalq yaratgan go'zal narsalarga muhabbat tuyg'usini, tabiatdagi boyliklarni qo'riqlash ehtiyojini tarkib toptirish zarur.

Asosiy bosqich – bolalarni bevosita o'yinga tayyorlash, o'yin jarayonida bolalarning har xil o'yin faoliyatini boshqarishi, uyga vazifa berish va hokazolardan iboratdir.

Yakunlovchi bosqich – mazkur o'yindagi barcha pedagogik-psixologik jarayonlarning natijalarini jamlashdir.

O'yinlarning samaradorligini oshirishning eng muhim shartlari quyidagilardan iboratdir:

Psixologik yo'nalishda:

- o'quvchilarning hissiyotli kayfiyati;
- emotsional fondni vujudga keltirish;
- o'yin faoliyatida xohishni tarkib toptirish;
- xayol va tasavvur kayfiyatini hosil qilish;
- faol idrok etish, kuzatuvchanlik va ongli fikrlash, irodalilik.

Pedagogik yo'nalishda;

- o'yin jarayonining izchil va yaqqol maqsadga qaratilishi;
- o'yinning vazifalarini belgilash;
- o'quvchilarni o'yinning mazmuni bilan yaqqol va ifodali tanishtirish;
- o'yinda o'qituvchining bolalar bilan baravar qatnashuvi;
- o'yin jarayonida she'rlar o'qish, kuylash, raqs tushish, taqlid qilish, imo-
ishoralarni bajarish, shuningdek, o'yinga tayyorlanish jarayonida o'yinda va uyga
berilgan topshiriqlarni bajarishda tasviriy ijod bilan shug'ullanish.

2.3.DARSLIKLAR BILAN ISHLASH

O'quvchilar ilgari darsliklardan uyda bidimlarini mustahkamlash uchun foydalangan bo'lsalar, maktab rivojlanishining hozirgi bosqichida esa ulardan yangi material bayon qilinishi bilanoq foydalanishmoqda. O'quvchi kitob bilan muvaffaqiyatli ishlay olishi uchun tegishli ko'nikma va malakalarni egallashi kerak. Ta'limning hozirgi bosqichida o'quvchilarga darslik bilan mustaqil ishlashni o'rgatish o'qituvchining muhim vazifasidir. Binobarin, ular kelajakda turli bilimlarni o'zlaricha tahlil qilishga, o'rganishga va umumlashtirishga ham majbur bo'ladilar.

Kitob bilan ishlashni o'rgatishning dastlabki bosqichida izohli o'qish metodidan foydalaniladi. O'qituvchi bolalarga kitobni diqqat bilan o'qishni, undagi har bir so'z va ifodaning ma'nosini o'ylab ko'rish hamda butun mazmunni qamrab olishni o'rgatadi. Darslik bilan ishlashning asosiy bosqichlari:

- o'quvchilar sinfda va uyda o'zlari uchun yangi materialni mustaqil holda o'rganadilar. Ishning bu usuli quyi sinflardagi darslarda dastlabki ko'nikmalarni shakllantirish uchun bir oz qiyinlik qiladi. Shunday ekan, darslik va kitob bilan ishlashning o'qitish metodi sifatidagi mohiyatini qanday ta'riflash mumkin?

Bu metodning mohiyati bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, o'quvchilarning darslik va kitob bilan mustaqil ishlashi jarayonida amalga oshishidan, va ayni paytda, ularning kitob bilan ishlash malakalarini egallashidan iboratdir. Mazkur metodning o'zaro bog'liq ikkita muhim tomoni mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning o'rganiladigan materialni mustaqil o'zlashtirish va ularda o'quv adabiyoti bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishdir. Dars mashg'ulotlari tizimida darslik bilan ishlashning to'g'ri yo'lga qo'yilishida o'qituvchining ta'limiy ishlari bilan o'quvchilar faoliyatining o'zaro muvofiqligi masalasi g'oyat muhim ahamiyatga molikdir.

Darslikni mashg'ulotlarni tashkil qilish uchun foydalaniladigan qandaydir yordamchi vosita deb bilmaslik kerak. Darslik, avvalo, o'quvchilar uchun muhim bilim manbalaridan biridir. Lekin u bayon etilgan materialni mustahkamlashning va o'quvchilar bajaradigan aqliy ishlarni faollashtirishning samarali vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ammo buning uchun o'qituvchi darslikni qo'llashda eng muhim metodik talablarga rioya qilishi zarur. U mashg'ulotlarni o'tkazishdagi muayyan holatda darslikni qay yo'sinda qo'llash maqsadga muvofiqligini aniqlab olishi, shu orqali bolalarni fikrlashga rag'batlantirishi, ularning o'rganiladigan materialni quruq yodlashi va yuzaki eslab olishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Shu boisdan dars mashg'ulotlari jarayonida darslik ustida ishlashni tashkil etishga qo'yiladigan ayrim umumdidaktik talablar haqida bir oz to'xtalish joizdir.

1. Avvalo, o'quvchilar darsda mustaqil o'rganishi uchun kerakli materialni to'g'ri tanlashi muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'quvchilar barcha masalalarni o'qituvchining oldindan tushuntirishsiz o'zlashtiravermaydilar. Ko'p mavzular mutlaqo yangi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va ular umumlashtiruvchi xarakterda bo'ladi.

2. Darslik va o'quv kitoblari bilan ishlashdan oldin doimo o'qituvchi mufassal kirish suhbatini o'tkazishi shart. Unda o'quvchilarni o'rganiladigan mavzudan xabardor qilishi, yangi materialning asosiy masalalariga e'tibor berishi (lozim bo'lsa, doskaga yozishi yoki oldindan tayyorlangan jadvalni ilib qo'yishi), shuningdek, mustaqil ishning tartibini belgilashi kerak.

3. Darslik bilan ishlash butun dars mobaynida davom etmasligi kerak. Uni o'qitishning boshqa shakllari va metodlari bilan birlashtirish lozim. Masalan, darslik bilan ishlab bo'lingach, material qanday o'zlashtirilganini tekshirish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, o'quvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtirish bo'yicha amaliy mashqlar o'tkazish kerak.

O'tilgan material ustida ishlash, yangi materialni bayon etish va mustahkamlashda darslikdan foydalanish yo'llarini ko'rsatamiz. Yuqorida aytilganidek, so'nggi yillarda o'tilgan material ustida ishlashda qo'llanilgan metodika uy vazifalariga o'xshash tayyorlanish mashqlari bilan bog'liq anchagina usullarni o'z ichiga oladi va bunday mashqlar darslik bilan bajariladi. O'quvchilar masalalarni yechadilar, mashqdarni ko'chiradilar, darslikdagi savollarga yozma javoblar qaytaradilar va hokazo. Lekin o'tilgan material bo'yicha darslik bilan ishlashning yana bir turi borki, uni ko'pchilik o'qituvchilar bilmaydilar. Ishning bu turi o'quvchilarning darslikdagi materialni mashg'ulotning boshida, bilimlarni tekshirish oldidan o'qishidir.

O'qitish jarayonidagi rahbarlik didaktik savollar yoki o'qituvchining savollari yordamida amalga oshiriladi. O'quvchi o'qituvchining savollariga tobe bo'lib qolmasligi uchun o'zi o'ziga mustaqil holda savollar qo'yishni o'rganishi, ya'ni o'zicha fikr yuritish ko'nikmasini o'zlashtirishi kerak. Bunga o'qitish jarayonida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi nima qilishi lozim? U avvalo zarur tushunchalar va operatsiyalarni o'rgatadi. Buni muayyan misollar orqali bajaradi. Ammo har bir o'qituvchi yangi materialni, yangi tushuncha va operatsiyalarni o'rgatganidan keyin ham o'quvchi ularni mustaqil holda qo'llashga qiynalishini biladi.

Qoida tushuntirilishi bilanoq taklif etilgan topshiriq ustida ishlashda o'quvchida avval ikkita faoliyat, ya'ni qoidani o'zlashtirish va qoidaning mazmunini tushunish faoliyatlari qo'shib ketadi. Qoidani o'zlashtirish faoliyatini nuqtai nazar yoki o'qituvchining savoli boshqaradi. Ayni paytda o'quvchi qoidaning mazmunini tushunishga ham harakat qiladi. Keyingi faoliyat muayyan

misolga qaratiladi. Bularning hammasi mazkur vaziyatda qoshilib ketadi. Agar qoida faqat bitta misol yordamida ko'rsatilsa, u tushuntirilgan vaziyatga o'xshasada, boshqa vaziyatlarga o'quvchilar mustaqil holda ko'chira olmaydilar. Shuning uchun o'quvchilarga oldin bir necha misollarni o'qituvchi rahbarligida yechish imkoniyati yaratiladi. Ular qoidani yaxshi o'rgangach va mashqlar bilan mustahkamlagach, ularga asta-sekin murakkablashib boradigan misollar, topshiriqlar asosida mazkur qoidani qo'llash bo'yicha mustaqil ishlar taklif etiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar darsda endigina o'rganilgan mazmunning o'zini emas, balki ana shu mazmuni o'rganishda qo'llangan usullarni takrorlash yo'li bilan yangi tushunchani mustaqil holda o'zlashtirishga tayyorlanadi. Sinfdagi hamma o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida qandaydir mavzuni o'rganganlaridan keyin o'qituvchi ularga "teskari yurish" qilishni, ya'ni darsning har bir nuqtasiga qaytishni va unda nima qilingani hamda qanday qilinganini kuzatishni tavsiya etadi. Bunda eng muhimi darsning mazmuni emas, balki o'quvchilarning ana shu mazmun ustida qanday ishlashidir. Bu esa ularga ta'limiy ishning usullarini anglashda yordam beradi. Sinfda qanday masalalar qo'yilganini, hodisani tushunishga yoki muammoni yechishga qanday qilib erishilganini bilib oladilar. Bu ish o'qish usullarini egallash mashqidir. Mana shu mashqning natijalarini bir o'quvchi doskaga yozadi, qolgan o'quvchilar darsning qanday o'tganini qayta tiklashda unga yordam beradilar.

Buning uchun doska ikki qismga bo'linadi va uning chap tomoniga darsdagi eng muhim faktlar hamda fikrlar qisqacha reja ko'rinishida yoziladi. O'ng tomonga masalalar, sinfda bajarilgan barcha ishlar, aytaylik, kuzatishlar, mo'ljallar, topshiriqlarning yechimlari va hokazolar yoziladi. Bu mashq orqali nimalarga erishiladi? Darsning asosidagi barcha masalalar, harakatlar va ifodalar darsning umumiy mazmunidan ajratiladi va shu tariqa o'quvchilarning tushunishi uchun moslashtiriladi. Natijada, o'quvchilar darsda nima qilish lozim bo'lganini va qanday qilinganini bilishga hamda tushunishga odatlanadilar. Vaqt o'tishi bilan bilish harakatlarini yangi hodisalarga yoki misollarga ko'chirish ko'nikmalari tarkib topadi. Lekin bilish harakatlarini ko'chirish mashqi o'quvchilar uchun darsda materialning o'zini o'zlashtirishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Ushbu mashqdan ko'zla-nadigan maqsad material va o'qitish vositalari orqali aynan bilish jarayonini anglashdan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan izlanishlar topshiriqlari savollarga yodlangan darslik matnidan yoki o'qituvchining tushuntirishidan tayyor holda olingan javoblarni qaytarish emas, balki har bir savolga tegishli javob topishni tavsiya qilishdan iboratdir. Ular aslida evristik-ta'limiy savollardir. Ana shu maqsadda quyidagi topshiriqlarni tavsiya etish mumkin:

a) kuzatish materiallarini yoki o'qituvchi bergan mavzu bo'yicha to'plangan faktlarni tizimlashtirish: asosiy masalalarni ajratish, reja tuzish, faktlarni guruhlashtirish;

b) taqqoslash va umumlashtirish, xulosa chiqarish va uni asoslash;

v) bilimlarni qo'llash: yangi faktlar va misollar bilan tasdiqlash, yangi hodisani o'rganilgan hodisa darajasida tushuntirish.

Kuzatishlar, amaliy ishlar, tajribalar, eksperimentlar davomida yaxshi o'zlashtirilgan bilimlarni emas, balki ularni qo'llashni ham talab qiladigan savollar va muammolarni o'z ichiga oladi, murakkabroq izlanishlar amalga oshiriladi.

Darsda bilishdagi mustaqillikning rivojlanishi avval o'qituvchining yordamidan, darslik, ma'lumotnoma, lug'at, shaxsiy kuzatish va tajribalardan foydalanib, savollarga mustaqil holda javob topish ko'nikmasini egallash, keyin esa hech qanday yordamsiz o'rganilgan materialga mustaqil holda savollar qo'yish ko'nikmasini egallash asosida amalga oshadi. Keyinchalik o'quvchi boshqacha sharoitda namunaga taqqoslab, topshiriqlarni hal qilish va savollarga javob berish ko'nikmasini o'zlashtiradi.

Bunda induktiv va deduktiv mushohada yuritish ko'nikmasi tarkib topadi. Umuman olganda, darsliklar bilan ishlash natijasida o'quvchi fanlar sohalari bo'yicha bilimlarni egallash bilan birga, milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasining tub mohiyatini tushunib yetadilar. Bunda, ayniqsa, o'qituvchining roli kattadir

3. Pedagogik fanlarni o'qitishda amaliy metodlardan foydalanish

“Pedagogik muloqotda qadriyatlarga doir to'siqlarning vujudga kelishi va ularni hal etish yo'llari” mavzusini o'rganish

REJA:

1. Pedagog va o'quvchi qadriyatlari orasida yuz beruvchi ziddiyatlar sababi.
2. Qadriyatlarga doir ziddiyatlarning turlari.
3. Qadriyatlarga doir ziddiyatlarning oldini olish usullari.

METODIK KO'RSATMALAR:

Pedagog va o'quvchi qadriyatlari orasidagi yuz beruvchi ziddiyatlar jumlasiga quyidagilar kiradi: o'g'il bolaning sochi uzun bo'lsa, o'quvchi qiz tirnog'ini o'stirib yoki labini bo'yab yursa, lug'atga kirmagan so'zlar ishlatlsa (qo'pol, uyatsiz so'zlar) va h.k. o'qituvchi bunday ziddiyatlarni oldini olish uchun quyidagi masalalarni yodidan chiqarmasligi lozim:

1. U o'quvchi axloqini o'zgartirishga agar uni maxsus taklif qilishgan bo'lmasa urinmasligi lozim.
2. U o'quvchi haqidagi ma'lumotlarni sinchiklab o'rganishi lozim.
3. Maslahat berish bosimsiz, uzoqqa cho'zilmasligi kerak.

TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq. Pedagogik muloqotda qadriyatlarga doir to'siqlarning vujudga kelishi va ularni hal etish yo'llarini o'rganib, konspektlashtiring.

2-topshiriq. Pedagogik muloqotda qadriyatlarga doir to'siqlarni vujudga keltiruvchi sabablarni aniqlang, tahlil qiling

1-masala

7-sinfda adabiyot darsida o'qituvchi jurnalni to'ldirib olguncha 2 o'quvchini bir-biriga qattiq ovozda uyatli so'kinish so'zlarini aytayotganini eshitib qoldi. O'qituvchi bu vaziyatdan o'zini eshitmaganga olib, chiqib o'quvchilarga axloq-odobga, so'zlashuv madaniyatiga oid rivoyatlar aytib berib, so'kingan o'quvchiga qissadan hissa chiqarishini uqtirib o'tadi. O'quvchi esa o'z navbatida o'qituvchidan, sinfdagi o'quvchilaridan kechirim so'raydi va dars yana davom etadi.

Vaziyatni tahlil qiling:

1. O'qituvchining bu vaziyatda tutgan pozitsiyasini qanday baholaysiz?
2. Siz ushbu vaziyatda o'qituvchi o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?
3. O'qituvchining pedagogik mahoratini tahlil qiling.

2-masala

O'qituvchi dars paytida 7-sinf o'quvchisi tirnoq o'stirib, labiga bo'yoq surtib kelganligini ko'rib qolib, qattiq koyib ketdi: "Ota-onasining ko'zi qayerda ekan, qizini shu ahvolga tashlab qo'ygan, bu qizni maqsadini tushunib turibman, bu yerga o'qish uchun kelmagan! Hoziroq direktorga olib borib, onasini chaqirtirib sharmanda qilaman", - deb sinf jamoasi oldida g'azablangan holda chiqi ketdi. Qiz bola yig'lagan holda palto va bosh kiyimini kiymasdan tashqariga o'qday otilib, chiqib ketdi...

Bu vaziyatda o'qituvchining xatti-harakatini baholang:

1. O'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak edi?
2. Darsda bunday muammoli vaziyatlar chiqishiga kim sabab deb o'ylaysiz?
3. O'qituvchining pedagogik etikasiga baho bering.

Mustaqil o'zlashtirishga tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent, 1999.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176.
3. Ahrorov Yu.A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Samarqand: MChJ "Sigma", 2004.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Leontev A.A. Psixologiya obsheniya. – M.; Sмыsl, 1995 g.
2. Рыbakova M.M. Konflikt i vzaimodeystviye v pedagogicheskom protsesse. – M.; Prosvesheniye, 1991 g.
3. Axrorov YU.A. Formirovaniye kultury mejnatsionalnogo obsheniya. – Samarkand, 1991 g.

XULOSA

Pedagogika fanida o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;
- o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;
- o'quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;
- o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;
- o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;
- o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: SHarq nashriyot-matbaa konserni. 1997.
2. Karimov I.A. YUksak malakali mutaxassislar — taraqqiyot omili. - Toshkent: O'zbekiston. 1995.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" /Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: SHarq nashriyot-matbaa konserni. 1997.
4. Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi. Ma`ro'za mantlari.
5. Munavvarov A.Q."Pedagogika" T. "O'qituvchi"1996 y.
6. Mavlonova R. va boshqalar "Pedagogika "T."O'qituvchi" 2007y.
7. Abdullaeva Sh.. D.Axatova. Pedagogik texnologiyalar. Nayoiy, 2003 yil
8. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. Toshkent. 2008
9. Меретукова В.Р. Инновационные идеи в дидактических трудах И.Я.Лернера. Дисс. ... канд.пед.наук (13.00.01). – Москва, 2003
10. Сайидахмедов Н.С. Система методов обучения учащихся механизированному труду в хлопководстве. Автореф. дисс. канд.пед.наук. – Москва, 1983, - с. 18
11. www.pedagog.uz.
12. www.ziyonet.uz.
13. www.school.edu.uz.
14. [www.inter – pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru).